

**MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARI TA'LIMOTIDA  
BOSHQARUV MASALALARI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**Baxram Jumanazarov**

*Xalqaro innovatsion universitet (Qarshi, O'zbekiston)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Markaziy Osiyo mutafakkirlari ta'lomitida boshqaruv va rahbarlik masalalari hamda uning psixologik xususiyatlari ilmiy tahlil qilingan. Shuningdek, davlat va jamiyatni boshqarishda hukmdor va rahbarning rahbarlik qilish mahorati, uning fazilatlari, boshqarish mexanizmini insonparvarlashtirishda rahbarlar, yo'lboshchilarning roli beqiyos ekanligi, omma o'rtasidaadolat qoidalari, odob-axloq normalarini targatish bilan shug'ullanish kabi fikrlar ifoda etilgan.

**Kalit so'zları.** Boshqaruv, davlat, rahbarlik, ijtimoiyadolat, jamiyat,adolatli, bilimdon, tartibli, dono, g'ayratli, shijoatli, haqgo'y, xalqparvar.

**Maqola bayoni.** Boshqaruv va rahbarlik muammolarini o'rganish psixologiya tarixida sezilarli darajada o'rin egallaydi. Rahbarshunoslik fanlarida rahbarning ijtimoiy turmushidagi roli, mamlakat va xalq taqdiridagi mas'ulligi taraqqiyot, farovonlik, baxtli turmush ko'p jihatdan uning shaxsiyatiga, faoliyatiga, qobiliyatiga, aql-zakovatiga bog'liq ekanligi chuqur bayon qilingan. Mutafakkir ajdodlarimiz ta'lomitlarida, xalq ijodiyotidaadolatli vaadolatsiz shoh to'g'risidagi ma'lumolar haddan ziyod ko'p. Jumladan, Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Amir Temur, Ulug'bek, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniylarning qo'lyozmalarida rahbar (yuksak lavozim egallaganlar nazarda tutiladi) insonlarning shaxsiy fazilatlari, ularning oldida turadigan murakkab, mas'uliyatli vazifalar, ayrim illatlarning oldini olish va bartaraf qilish yo'l-yo'riqlari bo'yicha ibratli fikrlar bildirilgan. Ayniqsa, rahbarning fahm-farosati, donishmandligi haqgo'yligi, xalqparvarligi, insof-diyonatliligi, sahovat peshaligi ilmiy-amaliy namunalar asosida ta'kidlab o'tilgan. Biz quyidagi buyuk tafakkur egalarining davlat va jamiyatni boshqarish, rahbarlik qilish mahorati, uning fazilatlari haqidagi qarashlarini tahlil qilamiz.

Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobi yaqin va o'rta sharqda ilg'or ijtimoiy-falsafiy oqimning asoschilaridan bo'lib, "Sharq Aristoteli" degan unvonga sazovor bo'lgan mashhur shaxsdir. O'rta asr mutafakkirlaridan birinchi bo'lib jamiyatning kelib chiqishi va davlatni boshqarishning asosi haqidagi bilimlar tizimini ishlab chiqdi hamda bu masalalarni bir qator asarlarida batafsil bayon etib berdi.

Abu Nasr Forobiyning jamiyat, davlat, huquq, siyosat,adolat, ta'lim va tarbiya haqidagi traktat g'oyalari, qarashlari "Baxtga erishish haqidagi traktat", "Urush va tinch-totuv yashash haqida", "Jamiyatni o'rganish haqidagi kitob", "Davlat arboblari haqidagi aforizmlar" kabi asarlarida o'zining chuqur ifodasini topgan. Muallif o'zining asarlarida jamiyatning kelib chiqishi, davlatning paydo bo'lishi, uning shakllari, davlat rahbarining vazifalari, ular oldiga qo'yilgan asosiy talablar, davlatni idora etish usullari haqida o'zining chuqur falsafiy-siyosiy qarashlarini bayon qiladi.

## MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Allomaning fikricha, odamlar o‘zlarining moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish uchun turli jamoalarga birlashganlar. Insonlarning bu jamoasini boshqarishda, albatta, ijtimoiy adolat prinsiplari, normalariga rioya qilish darkor ekanligini qayta-qayta takrorladi. Jamiyatni boshqarish mexanizmini insonparvarlashtirishda rahbarlar, yo‘lboshchilarning roli beqiyos ekanligini, har tomonlama isbotlab, jamiyatni boshqaruvchi rahbarlar uchun zarur bo‘lgan asosiy fazilatlar, sifatlar va hislatlarni aniqlab berdi.

Forobiy shahar davlat rahbarlarining haqiqatgo‘y, yolg‘onga, adolatsizlikka, zulmga qarshi keskin kurashuvchi, boylikka jirkanib qarovchi, adolatni o‘z tabiati bilan seuvuchchi, botir va qat’iy bo‘lishi zarurligini ta’kidlab o‘tadi. U davlatni boshqarishda donolar maslahatiga suyanish, ular bilan maslahatlashib ish yuritish, boshqaruv apparatiga ega har tomonlama yetuk dono, halol va kamtarin kishilarni jalb qilishni eng to‘g‘ri yo‘l deb biladi.

Muallifning fikricha, barcha toifadagi rahbarlar qo‘l ostidagi xodimlari bilan bo‘ladigan munosabatlarda dilkash, xushmuomala bo‘lishi, ularni tinglay olish, notiqlik san‘atini yaxshi egallagan bo‘lishi shart. Xalq dardini eshitmaslik, muomala madaniyatining yo‘qligi oxir-oqibatda rahbar bilan bo‘ysunuvchi o‘rtasidagi munosabatning buzilishiga olib kelishini hayotiy misollar yordamida tushuntirib bergen.

Abu Nasr Forobiy davlat rahbarining eng zarur fazilatlar sifatida mulohazali bo‘lishni, adolatparvarlikni, kamtarlikni, haqiqatni sevishni va eng asosiysi har bir ishda aql bilan fikr yuritishni alohida qayd qiladi. Fozil davlat rahbari – o‘qituvchi sifatida o‘z o‘quvchisi – aholiga ilm yordamida baxt-saodatga erishish yo‘llarini o‘rgatadi. Muallif yuqorida sanab o‘tilgan fazilatlarni bir kishida mujassamlashtirish mumkin emasligini tushunib, ana shu fazilat turlarini o‘zida mujassamlashtirgan shaxslar birqalashib davlatni idora etishlari zarur, deydi.

Umuman olganda, Forobiyning asarlarida keltirilgan rahbarlik masalalariga doir fikrlar nafaqat o‘z zamonasi uchun, balki bugungi kun rahbar kadrlarini tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi.

O‘rta asr ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘sghan allomalardan biri Abu Rayhon Beruniy bo‘lib, uning ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashi hukmron davlat boshqaruvida feodal tarqoqlik va islom siyosiy mafkurasi ustunlik qilayotgan bir zamonda shakllanadi.

Beruniy jamiyatni boshqarishda jamiyat podshoga xizmat qilmay, balki podsho jamiyatga xizmat qilishi kerakligini tushungan holda: “idora qilish va boshqarishning mohiyati aziyat chekkanlarning huquqlarini himoya qilish, birovlarining tinchligi yo‘lida o‘z tinchligini yo‘qotishdan iborat”, - deydi.

U Xorazmshoh Ma’mun II saroyida hukmdorning maslahatchisi bo‘lib xizmat qilgan chog‘larida ham mamlakat siyosiy ishlarida faol qatnashgan, shohga juda ko‘p foydali siyosiy maslahatlar bergen, siyosiy tavsiyanomalar ishlab chiqib taqdim etgan edi.

Muallif, rahbarlik lavozimlariga o‘tirgan amaldorlardagi yaxshilik, rostgo‘ylik, oliyjanoblik, muruvvat, yaratuvchanlik, bunyodkorlik, mehr-shafqat, do‘st-birodarlik kabi fazilatlarni ulug‘laydi. Bunday fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirgan amaldor

## MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

nafaqat o‘ziga, balki el-yurtga foyda keltiradi. Yolg‘onchilik, yomonlik, raqobatlashish, g‘animlik, ichiqoralik, qo‘pollik, ikkiyuzlamachilik, o‘ziga bino qo‘yish kabi illatlar rahbarni tubanlashtiradi.

Beruniy o‘zining orzu-umidlarini odil hokimlar bilan bog‘lagan bo‘lsa-da, lekin ideal shoh o‘sha davrda topilmasligini va bo‘lishi ham mumkin emasligini his etadi. U johil va zolimlarning mavjudligi tufayli zulm va zo‘ravonlik kuchayadi, boylikka xirs qo‘yiladi, deb ta’kidlaydi.

Mutafakkirning davlat va jamiyatni boshqarish, rahbarlik masalalariga doir qarashlari bugungi kun boshqaruva jarayonlarini oqilona tashkil qilishda ham muhim ahamiyatga ega.

Ulug‘ tabib Abu Ali ibn Sino jahon ilm-u fani xazinasiga o‘zining ijtimoiy-siyosiy, falsafiy duyoqarashi bilan ulkan hissa qo‘shgan allomalardan biridir. Ayniqsa, uning davlat boshqaruvi haqidagi fikr-mulohazalari tahsinga loyiqdir.

Ibn Sino siyosiy qarashlaridagi e’tiborga molik narsa – bu ideal davlat to‘g‘risidagi g‘oyadir. Uning fikricha, ideal davlat tepasida ma’rifatparvar shoh turishi kerak. Jamiyat a’zolarining barchasi mehnat bilan shug‘ullanishlari zarur. Uningcha ideal jamiyat aholisi uch tabaqaga bo‘linadi: ma’muriy ishlar bilan shug‘ullanuvchi boshqaruvlar, ishlab chiqaruvchilar va harbiylar.

Ibn Sino jamiyatni davlatsiz, qonun-qoidasiz tasavvur qila olmaydi. U o‘zining “Risolai tadbiri manzil” asarida shunday yozadi: “Agar hamma odamlar shoh, sultonlardan iborat bo‘lsa, yoki hammalari oddiy mehnatkash bo‘lsalar, ularga rahbarlik qiluvchi xonlar, sultonlar bo‘lmasa, bunday hollarda ularning barchalari halok bo‘lgan bo‘lur edilar”. Mutafakkir jamiyatdagi moddiy tengsizlikni e’tirof etib, odamlarning hammalarini boyib ketishlariga va aksincha kambag‘allahшиб ketishlariga qarshi chiqadi. Uning fikricha, agarda hamma jamiyat a’zosi birdek boylikka, mulkka ega bo‘lsa, u holda bir kishi ikkinchi kishiga yordam ko‘rsatishi, bir-birini rag‘batlantirishi tugatiladi. Aksincha, odamlarning hammasi yo‘qsillarga aylansalar, bunday holda, ular ocharchilikdan qirilib ketadilar.

Allomaning tushuntirishicha, turli jamoalarga birlashgan odamlar faoliyatini yagona maqsad atrofida birlashtiruvchi muhim omillardan biri – axloqdir. Inson qanchalik bilimdon, qanchalik tadbirkor bo‘lmasin umuminsoniy axloq qoidalariga tayanmasa, u odobsiz bo‘ladi, yomonlikka yo‘l qo‘yadi. U boshqaruvchilardagi adabsizlik, axloqsizlik alomatlari: ikkiyuzlamachilik, yolg‘onchilik, xoinlik kabi hislatlarni, insonlar ustidan qilingan har qanday zo‘ravonlikni qoralaydi.

Shuni aytish kerakki, Ibn Sinoning rahbarlik, boshqaruv hokimiyati haqidagi qarashlari bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, rahbar va xodimlar psixologiyasini o‘rganishda muhim o‘rin tutadi.

Sharq mamlakatlari xalqlarining madaniy-ma’naviy taraqqiyotida ulkan hissa qo‘shgan allomalardan biri Yusuf Xos Hojibdir. U o‘zining bizga qadar yetib kelgan yagona dostoni bilan jahonga ma’lum va mashhurdir.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida davlat va jamiyatni boshqarishda subordinatsiya va ierarxiya munosabatlari Aql(O‘g‘dulmish) timsolida namoyon bo‘ladi.

## MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Muallif Aqlni (O‘g‘dulmishni) asar markazida qo‘yar ekan, aynan u orqali o‘ziga xos, sharqona davlatchilik konsepsiyasini bayon qiladi. Bu konsepsiya muvofiq Aql shohni amaldorlar, maslahatchilar, elchilar, kotiblar, xizmatkor va fuqarolardan farq qiladigan sifatlarga ega bo‘lgan shaxs sifatida tasvirlaydi. U kuchli aql sohibi, yuksak farosat egasi, ko‘ngli ezgulikka to‘la mohir ishbilarmondir. Bundan tashqari u tajriba, ma’rifatparvarlik, adolatparvarlik va sadoqat bobida 12 fazilatni o‘zida mujassam etadi. Shoh bunday fazilatlari bilan xizmatkor va fuqarolaridan ajralib turadi. Aynan shu fazilatlari vazirlar, lashkarboshilar, kotiblar, xizmatkorlar hamda fuqarolarni unga hurmat-izzat, sadoqat ko‘rsatishga, subordinatsiya va ierarxiya munosabatlariga muvofiq bo‘ysunishga undaydi. Shohni o‘zi qatori yoki o‘ziga teng bilgan a’yonlar, xizmatkorlar aksariyat hollarda unga chin dildan izzat ko‘rsatmagan, o‘zidan past ko‘rganlari esa uni taxtdan mahrum qilgan, hatto o‘ldirgan.

Doston qahramonlari – hokim Kuntug‘di adolat ramzi, vazir Oyto‘ldi baxt (davlat) ramzi sifatida, vazirning o‘g‘li O‘g‘dulmish aql ramzi sifatida muallif tomonidan o‘ylab topilgan, biroq ular mavjud dunyo namoyondalaridir.

Mutafakkir inson faqat jamiyatda, boshqa kishilar bilan muloqotda va o‘zaro munosabatlarda, ijtimoiy foydali mehnatdagina chinakam kamolotga yetishadi, degan shiorni ilgari suradi. U jamiyatda mehnat ahli (dehqonlar, chorvadorlar, hunarmandlar) hal qiluvechi rol o‘ynashini uqtiradi. Binobarin, Xos Hojib hokimga adolatli bo‘lishi, o‘zboshimchalik va qonunsizlikka yo‘l qo‘ymaslikni maslahat beradi. Chunki bu narsa insoniy axloq odob nuqtai nazaridan mutlaqo yomonlikdir. Ikkinci tomondan haddan tashqari qilingan zulm xalqning sabr kosasini to‘ldirishi va isyonga olib kelishi mumkin.

Yusuf Xos Hojibning axloqiy qarashlari uning siyosiy va ijtimoiy qarashlari bilan chambarchas bog‘liqidir. Uning fikricha, hokimlarning, ularga mute kishilarning har tomonlama axloqiy kamol topishi davlatning siyosiy jihatdan mustahkamlanishiga olib keladi. Hokim dono bo‘lsa, boshqaruv negizini aql va adolat tashkil etadi. Aql va adolat, shubhasiz, yalpi baxt-saodat va farovonlikni olib keladi. Mazkur jamiyat a’zolarining o‘zaro munosabatlarida esa axloqning do‘stlik, sadoqat, halollik, rostgo‘ylik, hurmat va muhabbat kabi umuminsoniy mezonlari hukmron bo‘ladi.

O‘z dostonida mutafakkir hokim bilan xalq o‘rtasidagi munosabatlar masalasiga katta e’tibor bergen. “Agar bek el haqida g‘amxo‘rlik qilsa, uning fuqarolari juda boyib ketadi. Bordi-yu fuqarolar boyib ketsa, unda bekning hamma istaklari ro‘yobga chiqadi. Agar xalq o‘z axloqini takomillashtirib borsa, bek ham axloq-odobga kamol topib boradi, bordi-yu bek axloqli, odobli bo‘lsa, u o‘z xalqi uchun yaxshilik qilgan bo‘ladi”, - deb ta’kidlaydi .

“Qutadg‘u bilig”da hokim bilan donishmandning bahamjihat ish tutishiga katta o‘rin berilgan. Mutafakkirning fikricha, “aslzoda” kishilar ikki xil bo‘ladi: “Biri – bu bekdir, boshqasi – donishmand bo‘lib insoniyat rahnamolaridir. Biri o‘z qo‘lida qilich olib fuqarolarini tartibga soladi, boshqasi esa qo‘liga qalam olib turmushning to‘g‘ri yo‘lini chizib beradi”. Qoraxoniylar hokimligi zamonida Yusuf Xos Hojib muruvvatli olimlar va bekka sodiq kishilardan iborat Kengash barpo etishni istagan edi.

## MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Yusuf Xos Hojib oddiy, kamtar kishilarni sharaflaydi. “Kishi qanchalik yuqori martabaga erishmasin, qanchalik katta boylik orttirmasin, baribir kamtar bo‘lib qolishi lozim, chunki oddiylik va kamtarlik odamni bezaydi, uni oq ko‘ngil va ko‘rkam qiladi. Zero, dunyoda hamma narsa: inson umri ham, baland martabalar ham, boylik ham, shonshuhrat ham o‘tkinchidir”, -deydi.

Shunday ekan “Qutadg‘u bilig” pand-nasihatlarga, falsafiy o‘git va yo‘l-yo‘riqlarga benihoya boy bo‘lib, undan boshqaruv ishlarida foydalanish foydadan holi emasdir.

Sharqning buyuk allomalaridan biri Jaloliddin Davoniy mashhur asari “Axloqi Jaloliy” kitobida inson kamoloti uchun zarur axloqiy fazilatlarga erishish yo‘llari va usullarini bayon etadi. Asar uch qismdan iborat. Birinchi qism – axloq faniga, ikkinchi qism – insonning ichki holati, oilaviy hayotiga, uchinchi qism – shaharni (davlatni) boshqarish va podshohlar siyosati deb atalib, unda muhim ijtimoiy-siyosiy masalalar ko‘tariladi.

Davoniy ham Forobiy kabi “Shaharlarni odil podsho idora qilsa, o‘z hukmlarida adolatga riosa qiladi, ta’magirlikni aql bilan daf etadi, johil shahar boshlig‘i esa o‘z manfaatini ko‘zlab ish yuritadi, boylikka hirs qo‘yib, xalq fikri bilan hisoblashmaydi”, deydi. Uning ta’kidlashicha, “davlatni idora etuvchi adolatsiz bo‘lsa, uning qo‘l ostidagilari ham ta’magirlik, yolg‘onchilik va boshqa hatti-harakatlar qiladilar, ya’ni podshoh ishini fuqarolar ham takrolaydi. Xullas, fuqarolarning yaramas xulq-odoblari uchun ham hukmdor aybdor sanaladi. Agar hukmdorlar adolatli bo‘lsa, boshqalar ham adolatli bo‘lishga harakat qiladi”, deydi.

Alloma odil shohni mohir tabibga o‘xshatadi. Dono tabib odamlar salomatligini doimo kuzatib, uning holatini mo‘tadillashtirib borgani kabi odil podshoh ham fuqarolarni yo‘ldan adashsa, ularni to‘g‘ri solib borishini aytadi. Muallif sevgi va muhabbat to‘g‘risida ham fikr yuritib, uni ijtimoiy muammolar bilan bog‘lab talqin etadi. U nafsoniy hirsga havasni muhabbat deb bilmaslikni qattiq turib himoya qiladi. Davoniy shahvoniy hirslarga berilmaslikni bunda, ayniqsa, podsholar hirs-u havasdan o‘zlarini tiyishi zarurligini, ular bo‘sh vaqtlarini davlat ahamiyatiga molik bo‘lgan masalalarga sarf etishlari zarurligini aytadi.

Davoniy olimlarning jamiyatda, davlat boshqaruvida tutgan o‘rniga katta ahamiyat beradi. Uning fikriga ko‘ra haqiqiy olim davlat ishlarida faol qatnashishi, jamiyatga foyda keltiradigan murakkab muammolarni yechishda ishtirok etishi kerak. Olimlar tabiat sirlarini o‘rganishi, ta’lim-tarbiya ishlari, omma o‘rtasida adolat qoidalari, odob-axloq normalarini tarqatish bilan shug‘ullanishi, boshqalardan ilgarigi safda turishi kerak. Ularning maslahatlaridan davlat muassasalari boshqaruvchilar foydalanishi muhim, deb uqtiradi.

Muallif fozil shahar boshqaruvchilari haqida gapirib, ularda o‘nta eng yaxshi fazilat mujassamlashgan bo‘lishi kerak, deydi. Bular quyidagilar: 1) hukmdor odamlarni e’zozlashi kerak; 2) davlat ishlarini adolatli ijro etishi kerak; 3) hirs va shahvatga berilmasligi kerak; 4) hukmdorlikda shoshma-shosharlikka va g‘azabga yo‘l qo‘ymasligi, balki shafqat va muruvvatga asoslanishi kerak; 5) xalqining ehtiyojini qondirishga oid ishlarni bajarishga harakat qilishi kerak; 6) xalqining ehtiyojini qondirish uchun

## MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

xudoning irodasidan kelib chiqishi kerak; 7) xalqqa nisbatan odil bo‘lishi kerak; 8) har bir ishni maslahatlashib, kengashib hal etishi kerak; 9) har bir kishini uning qobiliyatiga monand lavozimga tayinlashi, qobiliyatsiz kishilarga yuqori lavozim bermasligi kerak; 10) adolatli farmonlar chiqarish, qonunni buzishga yo‘l qo‘ymasligi kerak.

Shuningdek, Davoniy hukmdorning diniy majburiyatlarga ham riosa etishi kerakligini ta’kidlagan. Ko‘rinib turibdiki, adoatli shoh timsoli Davoniy istagan axloqiy kamol topgan shaxsdir.

Xullas, Davoniyning jamiyat paydo bo‘lishi, davlat, uni boshqarish masalalari, adolatli vaadolatsiz podsholar, ilm-fan taraqqiyotining jamiyatda, muhitda tutgan o‘rni, aqliy va axloqiy tarbiya haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o‘z qimmatini yo‘qotmay, har tomonlama yetuk rahbarlarni kamol toptirishda muhim dastur bo‘lib xizmat qila oladi.

Sharq mumtoz madaniyatining butun dunyoga mashhur namoyondalaridan biri Muslihiddin Sa’diyning “Guliston” asari Sharq ta’lim-tarbiya tarixida o‘ziga xos didaktik shoh asar sifatida tan olingan. Kitob “Podshohlar odati bayoni”, “Darveshlar axloqi bayoni”, “Qanoatning fazilati bayoni”, “Sukut saqlashning foydali bayoni”, “Zaiflik va keksalik bayoni”, “Ishq va yoshlik bayoni”, “Suhbat qoidalarini bayoni” kabi boblardan iborat. Asarning mundarijasidan ham ko‘rinib turibdiki, u insonni kamolotga yetaklovchi hikmat namunalaridan tashkil topgan.

Asarda o‘sha davr an’anasiga ko‘ra insonni baxtli eta oladigan fozil va adolatli hukmdor, uning a’yonlari qanday bo‘lishi, yurtni boshqarishdan tortib, axloqiy hislatlarigacha bayon etiladi. Uning nazdida hukmdor ham inson, u ham faqat o‘zining manfaatini emas, el-yurt manfaatini ham o‘ylab faoliyat olib borishi kerak. Sa’diy podsholarni adolatli, bilimdon, tartibli, dono, g‘ayratli va shijoatli, ziyorak, fahm-farosatli, o‘z fuqarolariga g‘amxo‘r do‘sit bilan dushmanning farqiga yeta oladigan oliyjanob, sahovatli, jasurlik hislatlariga ega bo‘lishlarini istaydi va bu hislatlarni ibratlari hikoyatlarda ifodalaydi.

Muslihiddin Sa’diy hukmdorlarni adolat yuzasidan ish yuritishga, zulm qilmaslikka chaqiradi. O‘z xalqiga jabr-u zulmni ravvo ko‘rgan podshohga qiyin kunlari o‘z do‘satlari ham yov bo‘lishini, agar fuqaroga shafqat qilsa, xalq uni har doim tashqi va ichki dushmanidan himoya qilishini, boshi doim omonda bo‘lishni ta’kidlab o‘tadi. Muallif hukmdorlarni bilim va aql-zakovatga ega bo‘lishi zarurligini aytadi. Hukmdorning ma’naviy qiyofasi uning aqli, bilimi, sof insoniy fazilatlar – jasurlik, lutf-u karam, odamiylik, mehr-shafqat ko‘rsatishda deb biladi.

Shuni aytish lozimki, Muslihiddin Sa’diyning “Guliston” asarida boshqaruva masalalariga doir ibratlari hikmatlar mavjud bo‘lib, undan hozir ham boshqaruva faoliyatini tashkil etishda foydalanish muhim ahamiyatga egadir.

Sharq ilm-fani tarixida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan allomalardan biri Abdurahmon Jomiydir. Alloma o‘z ijtimoiy-siyosiy qarashlarida zulm tugatilgan, ezuvchi ham, eziluvchi ham bo‘lmagan, barcha teng huquqqa ega bo‘lgan fozil jamiyatni orzu qiladi. Fozil jamiyatning bunyodkorini adolatli, xalqparvar shoh siyosida ko‘radi. Bunday

## MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

davlat boshlig‘ining ijtimoiy qiyofasini o‘zining “Xirodnoma Iskandar” (Iskandar aqlnomasi) asarida Iskandar obrazida gavdalantiradi. U ulus dardi bilan yashovchi, uning dardiga qulq soluvchi, nohaq qon to‘kishning oldini oluvchi hukmdor haqida orzu qiladi.

Abdurahmon Jomiy adolatli shohning eng olivjanob fazilati odillik deb o‘ylaydi. Odillikni nurga qiyos qiladi. Zo‘rlikni esa zulmatga o‘xshatadi. Davlat tepasida turgan kishi adolatli bo‘lishi bilan birga ma’rifatli bo‘lishi ham zarurligini aytadi. Ammo nodon kishi ham adolatli bo‘lishi mumkin, deb hisoblaydi.

Allomaning fikricha, nodonlik adolatli boshliqni noto‘g‘ri yo‘lga boshlashi mumkin. Har qanday nodonlikdan boshliqni ma’rifat saqlab qoladi. Faqt ma’rifatli shoh adolatli hukm chiqarishi mumkin. Jomiyning ta’kidlashicha, davlat qonunlarga asoslanib boshqarilishi lozim. Qonun ustuvor bo‘lgan jamiyatda fuqarolar farovon yashaydi. Odamlar o‘zlarining kundalik amaliy faoliyatida qonunlarga rioya qilishi adolatning eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri, deb hisoblaydi.

Jomiyning fikriga ko‘ra, shariat talablariga javob beradigan har qanday harakat ham adolatli bo‘lavermaydi. Qabul qilingan qarorlar xalq tomonidan ma’qullansa, qo‘llab-quvvatlansa, bunday tadbirlarni adolatli desa bo‘ladi. Kishilarga ziyon yetkazuvchi tadbirlar hech qachon adolatli bo‘lishi mumkin emas. Xalq ko‘nglini olgan hukmdorgina hurmat-izzatga sazovor bo‘ladi. Rahmdilik va adolat bilan ish tutadigan shoh, uning fikriga ko‘ra, duolarga muhtoj emas. Alloma “Musulmon bo‘la turib johillik bilan xalqni azob-uqubatda tutgandan ko‘ra, kofir bo‘lib yaxshi va adolatli ish tutgan ma’qul”, deydi.

Xullas, Abdurahmon Jomiy asarlarida ilgari surilgan rahbarlar egallashi zarur bo‘lgan eng yaxshi fazilatlar hozirgi davrda ham har tomonlama barkamol boshqaruvchilarini kamolga yetkazishda muhim dastur bo‘lib xizmat qila oladi.

Buyuk shoir va davlat arbobi Alisher Navoiyning siyosiy qarashlarida ham odil hukmdorlarga, el-yurtga, adolatli tuzum o‘rnatalishiga qat’iy ishonch, katta umid gavdalanadi. Shoирning fikriga ko‘ra, davlatni boshqaradigan hukmdor yaxshilik, eзgulik bilan nom chiqarishi, savodxon, ilmli, xususan tarixni yaxshi bilishi, eng muhimi – axloqan pok bo‘lishi zarur. Jamiyatni boshqaruvchi kishi uchun adolatparvarlik o‘ta zarur fazilat ekanligini qayta-qayta takrorlaydi.

Navoiyning nazarida, adolatli, odil, podshoh – buyuklik timsoli bo‘lib, u haqida shunday mulohazalarni aytadi: “Adolatli podshoh haq taolloning xaloyiqqa ko‘rsatgan marhamatidir, mamlakat uchun tinchlik va farovonlik sababchisidir. Kambag‘al va bechora odamlar uning yaxshi muloyim muomalasidan rohatda, zolim amaldor va mirshablar uning siyosati tig‘idan qo‘rquvda. Zabtidan amaldorlar qalami siniq, zolimlar bayrog‘i yig‘iq. G‘amxo‘rligi va faoliyatidan masjidlar jamoat bilan, madrasalar esa ilm ustida bahslashuvchilar bilan to‘la va g‘ala-g‘ovur... Shoirlar adolatli hukmdorning go‘zal sifatini madh aylab qasidalar yozadi, olimlar uning yaxshi nomini ta’riflab risolalar bitadi. Bastakorlar unga atab kuylar yaratadi, xonanda – sozandalar uni dil-jigardan kuylaydi”.

“Saddi Iskandariy” Navoiyning barcha siyosiy, huquqiy qarashlarini o‘zida mujassamlashtirgan utopik asardir. Bu asarda shoir eng oddiy siyosiy masalalardan, ya’ni

## MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

bo'lajakadolatli shohni tanlash, tarbiyalash, bozorlarda tosh-u taroziga davlat nazoratini o'rnatish, aniq o'lchov birliklarini joriy qilish kabi masalalargacha, shuningdek, eng murakkab masalalar bo'lmish – davlatlararo munosabat,adolatli va adolatsiz urushlar, davlatni idora qilishda shoh, omma va fanning roli kabi qator masalalarni ochishga qaratilgan g'oyalarni ilgari suradi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, rahbarlik masalalarini o'rganish Sharq Uyg'onish davri va undan keyingi yillarga kelib, ommalashdi. Juda ko'plab allomalarimiz bu mavzuning mohiyatini o'z asarlarida ochib berishga intilganlar. Forobiy, Ibn Sino, Amir Temur, Navoiy, Davoniy, Bobur kabi mutafakkirlarimiz tomonidan boshqaruv va rahbarlik faoliyatining ham nazariy, ham amaliy jihatlari yoritilgan. Shuning uchun ham ular o'z qarashlari bilan insoniyat qalbidan mustahkam o'rinn olishgan. Buyuk tafakkur egalarining boshqaruv va rahbar psixologiyasiga oid qarashlaridan ijodiy foydalanish hozirgi kun uchun ham muhim ahamiyatga egadir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boymurodov N. Rahbar psixologiyasi. T.: Yangi asr avlod. 2007. -328 b.
2. Valijonov R. Menejment asoslari. T.: Universitet. 1996. -341b.
3. Davlat xizmati personalini boshqarish. Mualliflar guruhi. T.: Akademiya. 2002. - 245 b.
4. Dushanov R., Farfiev Yo. Kasbiy psixologiya. T.: Akademiya. 2012. -322 b.
5. Do'stjanov T., Hasanov S. O'zbekiston demokratik taraqqiyot yo'lida. T.: 2004. - 322 b.
6. Yo'ldoshev M. Rahbarlik psixologiyasida axloq. T.: Sharq. 2010. -192 b.
7. Karimova V. va boshq. Boshqaruv psixologiyasi. T.: Fan va texnologiya. 2008. - 208 b.
8. Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari. T.: Fan. 1994. -136 b.
9. Mirqosimov M. O'zbek mutafakkirlari boshqarish haqida. T.: O'zbekiston. 1997. -134 b.
10. Yusuf Xos Hojib Qutadg'u Bilig. -T.: G.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1971. -964 b.
11. Hoshimov H. va boshq. Pedagogika tarixi. T.: O'qituvchi. 1996. -488 b.
12. <http://www.ziyonet.uz/uzc/people/boshqaruv> uzc
13. [http://www.ziyonet.uz/uzc/people/boshqaruv\\_psixologiyasi](http://www.ziyonet.uz/uzc/people/boshqaruv_psixologiyasi) uzc